UO‘K 37.02

BOLALAR JAMOASIDA DO‘STONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

(Rivojlanish markazlari misolida)

I.X. Kuranova

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ilk qadam” o‘quv dasturiga asoslangan holda tashkil etiladigan rivojlanish markazlarining bolalar ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, bolalar jamoasida do‘stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida hamkorlikda oq’itish texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Texnologiyadan foydalanish usullari hamda pedagoglar uchun amaliy-metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *rivojlanish markazlari, do‘stona munosabatlar, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari.*

В статье рассматривается роль центров развития в дошкольных образовательных организациях, работающих по программе «Первый шаг», в образовании детей. Анализируются возможности эффективного использования технологий взаимодействия в центрах развития для формирования доброжелательных отношений в детском коллективе. Представлены методика использования технологий и практическо-методические рекомендации для педагогов.

Ключевые слова: *центры развития, доброжелательные отношения, технологии совместного обучения.*

Kirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning rivojlanish sohalarida erishilgan kompetensiyalarini chuqurlashtirish, mustahkamlash hamda ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida har bir guruhda rivojlanish markazlari tashkil etilishi zarur hisoblanadi. “Ilk qadam” o‘quv dasturida har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘zining moddiy-texnik bazasi, mavjud imkoniyatlari hamda hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlarda rivojlanish markazlarini tashkil qilishi mumkinligi qayd etilgan. Shu bilan birga, mazkur dasturda bolalar faoliyatini integrallashgan holda qo‘llab-quvvatlovchi va ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi 5 ta asosiy rivojlanish markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Bular quyidagilardan iborat:

- qurish, konstruksiyalash va matematika.
- syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish;
- til va nutq;
- fan va tabiat;
- san’at.

Mazkur markazlarni tashkil etish va ularni jihozlash bo‘yicha “Ilk qadam” o‘quv dasturida umumiy tavsiyalar berilgan bo‘lsa-da, qat’iy standartlar belgilab qo‘yilmagan. Bu esa har bir ta’lim tashkilotiga moslashuvchan yondashuv asosida, o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda markazlarni shakllantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, rivojlanish markazlarining resurs bazasini shakllantirishda bolalarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhim omil hisoblanadi. Ya’ni, kichik va o‘rta guruhlar uchun nisbatan sodda-

lashtirilgan, motorika va sezgi organlari faoliyatini rag‘batlantiruvchi materiallardan foydalanish zarur bo‘lsa, katta va tayyorlov guruhlarida murakkabroq – tafakkur, tahlil, dizayn va ijodiy yondashuvni talab qiluvchi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Rivojlanish markazlarini tashkil etish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bolalarning individual qobiliyatlarini namoyon etish, mustaqil faoliyat olib borish, kreativ tafakkurini rivojlantirish va ijtimoiylashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi. Har bir markazda faoliyat yuritish davomida bolalardan muayyan darajadagi mustaqillik, tashabbuskorlik va kreativlik talab etiladi. Shu bilan birga, har bir markazni tashkil etishda pedagogik-psixologik qonuniyatlar, xavfsizlik me’yorlari hamda rivojlanishning yoshga mos bosqichlarini inobatga olgan holda tashkiliy ishlar amalga oshirilishi lozim. Masalan, qurish va konstruksiyalash markazida joylashgan elementlar bolalar tomonidan osonlik bilan yetib boriladigan, shu bilan birga, bexosdan buzilishining oldini olish uchun maxsus himoya chegaralari bilan ajratilishi lozim. Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazida esa har hafta mavzuga mos ravishda ertaklar va sahnalar yangilanib, yangi aksessuarlar va atributlar bilan boyitilib borilishi bolalarda ushbu markazga nisbatan qiziqishni doimiy saqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mavjud ertak atributlarini boshqa syujetlar uchun qayta talqin qilish orqali bolalarda kreativ yondashuv va yangicha fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Material va metodlar

Maqolada qo‘yilgan muammo maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlari misolida o‘rganildi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha nazariy jihatdan metodologik asos sifatida R.Slavin, D.V.Jonson, R.Gillies ishlariga tayanildi.Muammoni tadqiq etishda teoretik tahlil, empirik usullaridan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Bolalarda ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, ularni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishda, qiziqishlarini rag‘batlantirish va ijtimoiy-emotsional salohiyatini yuksaltirishda turli pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda pedagogning mahorati, didaktik vositalarni to‘g‘ri tanlashi hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq eta olishi alohida o‘rin tutadi. Xususan, 6–7 yoshdagi (tayyorlov guruhi) bolalar jamoasida do‘stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlari orqali tashkil etilgan faoliyatlar muhim vosita sifatida xizmat qiladi. “Ilk qadam” o‘quv dasturida belgilangan kompetensiyalarni shakllantirishda ushbu markazlar alohida o‘rin egallaydi. Bolalar ushbu markazlarda, odatda, kichik guruhlarda birgalikda ishlash orqali vaqtlarini mazmunli, samarali va emotsional jihatdan boy o‘tkazadilar. Rivojlanish markazlarida faoliyat olib borish davomida bolalar ko‘p hollarda tabiiy tarzda hamkorlikka kirishadilar. Bu esa o‘z navbatida bolalarda kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar, mas’uliyat, muomala madaniyati va empatiya kabi ijtimoiy fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkichlarni inobatga olgan holda tayyorlov guruhi bolalari jamoasida do‘stona munosabatlarni shakllantirishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyalaridan unumli foydalanish o‘z samarasini bermay qolmaydi. “Ilk qadam” o‘quv dasturida rivojlanish markazlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi va bolalar kundalik faoliyatining bir qismini ushbu markazlarda o‘tkazishi kerakligi belgilab qo‘yilishi ham bevosita hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari 1970-yillarda ishlab chiqilgan va ushbu texnologiyalar asosida bir nechta metodlar ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilingan. Hamkorlikda o‘qitish

texnologiyasi asosan umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimi uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning ayrim uslublari va yondashuvlari maktabgacha ta’lim jarayoniga ham moslashtirilgan holda joriy etilishi mumkin. Mazkur texnologiyada pedagog o‘qituvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, yordamchi va fasilitator (qulay shart-sharoitlarni yaratib beruvchi) rolini bajaradi. Shu tarzda ta’lim jarayonining markazida pedagog emas, balki bola turadi, pedagog esa uning o‘zini namoyon etishiga, ijodiy fikrlashiga va ijtimoiylashishiga ko‘maklashadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu texnologiyaga xos bo‘lgan bir qator amaliy ko‘rinishlarni aytish mumkin. Masalan:

- lego konstruksiyalari yordamida birgalikda bino barpo etish;
- plastilin, qog‘oz va karton materiallaridan maketlar yasash;
- ertak sujetlarini sahnalashtirishda rollarni bolalarning o‘zaro taqsimlashi;
- o‘simliklar yetishtirish va gullarni parvarish qilish bo‘yicha birgalikdagi ishlar;
- o‘yin orqali masalalarni hal qilishda muloqotga kirishish va guruhda fikr almashish.

Bu kabi faoliyatlar orqali bolalar o‘zaro ishonchni shakllantiradilar, bir-birining fikriga hurmat bilan yondashishni o‘rganadilar hamda birgalikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday yondashuvlar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy va psixologik jihatdan ham bolaning kompleks rivojlanishini ta’minlaydi. Shu asosda, bizning fikrimizcha, tayyorlov guruhlarida do‘stona munosabatlarni shakllantirish hamda bolalarda hamkorlikka asoslangan ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi tarkibiga kiruvchi ayrim metodlarni takomillashtirgan holda ta’lim jarayonida qo‘llash samarali natijalar beradi.

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimi an’anaviy yondashuvlar, ya’ni “o‘qituvchi bilimni beruvchi, o‘quvchi esa uni tayyor holatda qabul qiluvchi” degan qarashlardan tobora uzoqlashib bormoqda. Xalq orasida “ustoz og‘ziga chaynab soladi, o‘quvchi esa faqat yutadi” degan ibora bilan ifodalanadigan bu yondashuv o‘z o‘rnini yangi pedagogik paradigmalarga – faol, interfaol, tadqiqotga asoslangan, tafakkurga yo‘naltirilgan ta’lim shakllariga bo‘shatmoqda. Zamonaviy yondashuvlar asosida ta’lim-tarbiya jarayoni endilikda shunday tashkil etilmoqdaki, bolalar bilimni tayyor holatda emas, balki o‘zlari uni idrok etish, uni tajriba orqali his qilish, kuzatish, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish orqali egallashga intiladilar. Bu esa o‘z navbatida, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish, tanqidiy va kreativ tafakkur yuritish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, pedagog (yoki maktabgacha ta’lim tashkilotida – tarbiyachi) endilikda bilimni tayyorlab beruvchi emas, balki o‘quvchi faoliyatini yo‘naltiruvchi, motivatsiya va bilim olish uchun qulay muhit yaratib beruvchi fasilitator rolini bajarishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, biz taklif qilayotgan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlab zamonaviy ta’limning yuqoridagi talablariga javob beradigan pedagogik yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu texnologiyaning asosiy tamoyillari – bolalar o‘rtasida hamkorlikni tashkil qilish, guruhda ishlash, o‘zaro fikr almashish, mas’uliyatni bo‘lishish, birgalikda muammolarni hal qilish kabi faoliyatlar orqali ularning ijtimoiy-emotsional, muloqot va tafakkur kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu asosda, biz ushbu texnologiyani maktabgacha ta’lim bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda qayta ishlab, ya’ni uni metodik jihatdan moslashtirish va takomillashtirish orqali ta’lim jarayoniga joriy etishni maqsad qilib qo‘ydik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir qator metodlaridan muntazam foydalanish bolalarning jamoaviy faoliyatga bo‘lgan tayyorgarligini oshiradi. Ushbu metodlar asosida bolalarda ustoz, tengdosh va boshqa ishtirokchilar bilan o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Faoliyatni takroriy asosda tashkil etish orqali esa bolalarda yangi ijtimoiy muhitlarga moslashuvchanlik, jamoada samarali va do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy rollarni anglash hamda jamoa bilan murosali ishlash kabi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlar rivojlanadi.

Maktabgacha ta’limda hamkorlikda o‘qitish (kooperativ ta’lim) texnologiyasining qo‘llanilishi bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi, kommunikativ salohiyatining oshishi va emotsional-intellektual jihatdan faollashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

Hamkorlikda o‘qitishning psixopedagogik afzalliklari

T/r	Yo‘nalish	Shakllanuvchi ko‘nikma /kompetensiya
1.	Axloqiy-kommunikativ	Altruizm, empatiya, kongruentlik
2.	Ijtimoiy	Guruhda ishlash, kelishuvchanlik, ziddiyatni hal qilish
3.	Shaxsiy	Individuallik, liderlik, ijodiy fikrlash
4.	Emotsional-psixologik	Pozitiv kayfiyat, uyatchanlikni bartaraf etish, emotsional intellekt
5.	Bilim va tafakkur jarayoni	Mantiqiy fikrlash, tafakkur yuritish, tanqidiy qarash
6.	Akademik va intellektual	Ta’lim sifati, qobiliyatlarni yuzaga chiqarish

Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining joriy etilishi pedagogik jarayonga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni samarali integratsiyalash imkonini yaratadi. Bu yondashuv, eng avvalo, tarbiyachilarning bolaga bo‘lgan munosabatini tubdan yangilaydi — ya’ni bola endilikda ta’lim oluvchidan ko‘ra ko‘proq istiqbolli shaxs, jamiyat taraqqiyotining subyekti sifatida talqin qilinadi. U bo‘lajak muhandis, shifokor, pedagog, arxitektor, davlat arbobi, millat va davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi shaxs sifatida ko‘zda tutiladi. Bunday yondashuv pedagogning kasbiy dunyoqarashini kengaytiradi, tarbiyaviy faoliyatda bolaning nafaqat aqliy, balki emotsional, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan strategiyalarni tanlashga undaydi. Kooperativ (hamkorlikda ishlash) ta’lim texnologiyalaridan, xususan, “kichik guruhlarda ishlash” (R.Slavin) metodidan foydalanish orqali tarbiyachilar:

- bolalardagi takroriy va reproduktiv fikrlashdan yiroqlashish;
- mavhum tushunchalarni izchil anglash;
- yangi g‘oyalarni shakllantirish;
- kreativ va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish;
- konstruktiv muloqotda ishtirok etish;
- qaror qabul qilishda o‘z fikrini erkin ifodalash;

kabi ijodiy, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishga erishadilar.

Ushbu metodik yondashuvda guruhli ishlash jarayoni quyidagicha tashkil etiladi: bolalar kichik guruhlarga ajratiladi va har bir guruhga umumiy vazifa topshiriladi. Guruh sardori ushbu vazifani a’zolar o‘rtasida taqsimlaydi. Har bir bola individual ravishda o‘ziga yuklatilgan bo‘limni bajarishi lozim. Agar bolaning mas’uliyatsizligi yoki faol ishtirok etmasligi kuzatilsa, bu holat butun guruh faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada vazifa to‘liq bajarilmaydi, guruh bahosi past bo‘ladi, shuningdek, guruh ichidagi ishonch, hurmat va ijtimoiy aloqalarning mustahkamligi zaiflashadi. Shu sababli metoddan foydalanishda tarbiyachi quyidagi vazifalarni bajarishi zarur:

- metodning maqsadi va mohiyatini bolalarga sodda, ammo tushunarli tarzda yetkazish;
- har bir bola o‘zining guruhdagi roli va javobgarligini anglab yetishini ta’minlash;
- bolaning shaxsiy faoliyat natijasi butun guruh uchun qanday natijaga olib kelishini tushunishga yo‘naltirish.

Hamkorlik asosida tashkil etilgan ta’lim bolalarda “Men – guruh uchun mas’ulman” degan ongli munosabatni shakllantiradi. Har bir bola jamoaning muhim a’zosi sifatida o‘z hissasini qo‘shishi zarurligini anglaydi. Natijada jamoaviylik, tenglik, o‘zaro hurmat, ijtimoiy adolat, empatiya, ijtimoiy hamkorlik va fuqarolik pozitsiyasi kabi demokratik fazilatlar mustahkamlanadi. Oddiy

qilib aytganda, bola hamkorlik asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati orqali jamiyat muammolarini o‘z dardi deb qabul qilishga o‘rganadi, ijtimoiy mas’uliyat hissi bilan yashashga intiladi. Loqaydlik, passivlik, befarqlik kabi salbiy holatlardan yiroqlashadi. Kelajakda shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va kasbiy hayotda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarga mo‘tadil, murosali va ijobiy yondashishga qodir, psixologik barqaror va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimida hamkorlikka asoslangan ta’lim texnologiyalarini qo‘llash, xususan, kichik guruhlarda ishlash metodi bolalarda ijtimoiy hamkorlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik, kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu texnologiya doirasida kichik guruhlarda ishlash metodi yordamida “Do‘stlik daraxti” mavzusi bo‘yicha quyidagi tartibda amaliy faoliyat tashkil etish mumkin: tarbiyachi dastlab bolalarni besh kishilik kichik guruhlarga ajratadi va har bir guruhga o‘zlari tanlagan rivojlanish markaziga (qurish, konstruksiyalash va matematika, sujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish, til va nutq, fan va tabiat, san’at markazlari) borishni taklif qiladi. Markazlarda faoliyat mustaqil tashkil etiladi, ammo tarbiyachi zaruratga ko‘ra yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi. Har bir kichik guruhga quyidagi vazifa yuklatiladi: “Guruh bo‘lib birgalikda “Do‘stlik daraxti”ngizni yarating. Har bir bola o‘z ishtiroki bilan faol qatnashishi, uning harakati va tashabbusi guruh yutug‘iga bevosita ta’sir etishini unutmang”. Tarbiyachi bolalar tomonidan tanlangan daraxtni albatta mevali daraxt (olma, o‘rik, gilos, nok va boshqalar) bo‘lishi zarurligini tushuntirgan holda quyidagi mazmunda suhbat olib boradi:

“Bolajonlar, daraxt meva berishi uchun uning har bir qismi – ildiz, tana, shox, barg va gul – o‘z vazifalarini mukammal bajarishi lozim. Chunki daraxtning o‘sishi va kattakon ko‘rkam daraxt bo‘lib yetilib, mevalari insonlar uchun foydali bo‘lib pishishi uchun bu qismlar o‘rtasidagi uyg‘unlik juda katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun jamoaning muvaffaqiyatga ega bo‘lishida ham har biringizning hissangiz muhimdir. Shunday ekan, hammangiz jamoa muvaffaqiyati uchun birlashishingiz va jon kuydirishingiz zarur”.

Metodik jihatdan tarbiyachi ushbu mashg‘ulotni o‘tkazishdan bir kun avval sahnalashtirish markaziga barcha zarur vositalarni – plakat, rasmli kartochkalar, zarurat tug‘ilganda rollarni ifodalovchi tayyor kiyim yoki rekvizitlarni joylashtirib chiqishi lozim. Agar maxsus kostyumlar mavjud bo‘lmasa, daraxt qismlari shaklidagi rasmli atributlar (plakatda tasvirlangan barg, ildiz, tana, meva, shox shakllari) bolalarga topshiriladi va ular ushbu tasvirlarni qo‘llarida ushlab turib, o‘z obrazlarini ijro etadilar.

Faoliyat quyidagicha tashkil etiladi:

Qurish, konstruksiya va matematika markazida har bir kichik guruh bolalari katta mevali daraxt modelini yaratadilar. Daraxt plastilin, loy, qurilish kublari, geometrik shakllar, qog‘oz yoki boshqa konstruktiv vositalar yordamida yasalishi mumkin. Bu jarayonda bolalar o‘zaro kelishgan holda o‘zlariga qulay bo‘lgan usulni tanlaydilar. Daraxtning har bir qismi – ildiz, tana, shox, barg va meva – bolalar o‘rtasida taqsimlanadi. Har bir bola o‘z qismini yaratish, bezatish va uni umumiy modelga moslashtirishda faol ishtirok etadi.

Sujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazida har bir bola o‘ziga biriktirilgan qism roliga kirgan holda “men” tarzida daraxt qismlari haqida ma’lumot beradi. Masalan, “men ildizman” jumlasi bilan boshlaydi va avvalo daraxtning yerga mustahkam bog‘lanishi, o‘sishi, oziqlanishi va meva berishidagi o‘rnini o‘z tasavvuri bilan tushuntiradi; “men tanaman” – butun daraxtni ushlab turish, oziq moddalarni tashish vazifasi haqida; “men shoxman” – boshqa qismlar bilan bog‘lovchi sifatida; “men bargman” – nafas olish jarayonlari, mevalarni turli xil tabiat hodisalaridan himoya qilishi; “men mevaman” – inson va hayvonlar uchun foydali mahsulot ekani haqida o‘zlarining mustaqil fikrlarini bayon qiladi. Dramatik ijro davomida daraxt hayotiyligini ifodalovchi jarayonlar – gullash, meva berish, odamlarning daraxt soyasida dam olishi, hosildan bahramand bo‘lishi sahnalashtiriladi.

Til va nutq markazidan o‘rin olgan bolalarga tarbiyachi bolalar ulg‘ayib, “katta odam” bo‘lib kamol topishida do‘stona munosabatlar muhim ekanligini ochib beruvchi qisqagina ertak tuzishni topshiriq qilib beradi. Ushbu topshiriqni bajarish uchun bolalar daraxtning qismlari tarzida bo‘linib oladilar, ya’ni ildiz, tana, shox, barg va meva kabi. Har bir bola qismlar ketma-ketligida do‘stlik haqida o‘zining tasavvuri va g‘oyasi asosida ertak to‘qiy boshlaydi. Faoliyat jarayoni davomida bolalar bir-birini diqqat bilan tinglashlari talab etiladi. Chunki navbati kelgan bola (qism) do‘stidan keyin ertakni o‘z g‘oyalari bilan va albatta ungacha yetib kelgan ertak voqealari bilan uyg‘unlikda davom ettirishi kerak. Daraxt o‘sib, gullab, oxiri hamma uchun shirin va mazali meva bergani kabi bolalar to‘qigan ertak nihoyasi ham ijobiy tarzda yakun topishini ta’minlash zarur.

Fan va tabiat markazida esa tarbiyachi bolalardan jonli daraxtni kuzatib, nima uchun do‘stlik, do‘stona munosabatlar aynan daraxtga qiyoslagani haqida o‘ylab ko‘rishni so‘raydi. Tarbiyachi bolalarning yanada teranroq fikr yuritishi uchun ular bilan quyidagicha suhbat o‘tkazishi mumkin.

Ildiz – yer tagida yashaydi, ammo u juda muhim. Ildiz daraxtning oziqlanishiga yordam beradi, uning bo‘y cho‘zib, meva berishida, yerda mahkam turishida muhim vazifa bajaradi. Do‘stlik ham insonlarning bir-biri bilan munosabat o‘rnatib, ulg‘ayib barkamol shaxs bo‘lib yetishishida asosiy o‘rinni egallaydi. Agar ildiz bo‘lmasa, daraxt qulab ketgani kabi, insonlar qalbida boshqalarga nisbatan do‘stona munosabatlar bo‘lmasa ularda rivojlanish ham bo‘lmaydi. Ildiz qanday qismlarga bo‘linsa, do‘stona munosabatlar ham shu qismlar kabi turli tomonlama o‘zaro bog‘langan, bir butun tizimdir.

Asosiy ildiz daraxtni yerga mahkamlab bog‘lab turadi. Do‘stlikda eng avvalo ishonch bo‘lishi lozim, busiz do‘stlik ildizsiz daraxt kabi qulab tushadi. Bolalarda o‘zaro ishonch uyg‘onsa, ular bir-biriga mehr bilan qaraydi, yurakdan do‘st bo‘ladi.

Daraxtni oziqlantiruvchi, tuproqdan suv va mineral olib beruvchi yon ildizlar – mehr, hurmat va sabrdir. Mehrsiz do‘stlik quriydi, hurmatsiz aloqalar yemiriladi, sabrsizlik do‘stona munosabatlarda pand beradi.

Mayda ildizchalar – yordam, quvnoqlik, kechirim. Ildizlarning eng nozik, ammo hayotiy ahamiyatga ega qismlari – kichik ildizchalar do‘stlikdagi yordam, birga quvonish va kechira bilish fazilatlariga o‘xshaydi. Bola kichik mehribonlik ishorasi bilan do‘stini quvontirsa, birgalikda o‘yin o‘ynasa, bu ularning do‘stlik “daraxti”ni oziqlantiradi.

Tana hamma qismlarni birlashtiradi. Oziqni ildizdan olib, shox va barglargacha yetkazadi. Do‘stlar tanaday bir-biriga yordam, ishonch beradi, doim suyanch bo‘ladi.

Barglar, gullar shox orqali taraladi. Shox ham kuchli bo‘lmasa, daraxt yashnamaydi. Do‘stlikda shoxlar – yelkadoshlar. Har bir inson bir-biriga do‘stona munosabatda bo‘lib qo‘llab-quvvatlasa, barcha baxtli bo‘ladi.

Barg quyoshdan nur olib, daraxt uchun oziq tayyorlaydi. Mevalarni kuchli issiqdan, shamol, yomg‘ir va do‘ldan himoya qiladi. Do‘stona munosabatlarda ham insonlar bir-birini ranjitmaydi, turli hayotiy sinovlardan himoya qiladi.

Meva – daraxtning hosili. Odamlar va jonivorlar undan bahramand bo‘ladi. Do‘stlikning mevasi – yutuq, baxt, mehr. Do‘st bo‘lgan kishilar ham birgalikda yutuqqa erishadi.

San’at markazida har bir bola o‘ziga tegishli daraxt qismining rasmini chizadi, bo‘yaydi, qirqadi. Mashg‘ulot so‘ngida katta plakatga rasmlar birlashtirilib do‘stlik daraxti hosil qilinadi.

Barcha markazlardagi faoliyat tarbiyachi tomonidan doimiy kuzatuv ostida olib boriladi. Murakkab vaziyatlarda yoki ikkilanilgan holatlarda nozik yondashuv asosida bolalarga yordam beriladi. Har bir guruhning ishi yakunida muhokama qilinadi. Bu jarayonda bolalarda sog‘lom raqobat, o‘zgalarning muvaffaqiyatini qadrlash, do‘stining yutug‘idan xursand bo‘lish va shunday natijaga qanday erishganini tushunishga oid muhim axloqiy-psixologik ko‘nikmalar rivojlanadi.

Mazkur metodning eng ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, bolalarga topshiriq be-

rilganda ular faqat o‘z individual bilim va ko‘nikmalarini namoyon qilish uchun emas, balki guruhning umumiy maqsadiga erishish yo‘lida jamoaviy harakat qilish zaruratini his etadilar. Guruhdagi topshiriq tuzilmasi shunday yo‘lga qo‘yiladiki, har bir bolaning bajarayotgan vazifasi boshqa ishtirokchilarning faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu esa bolalarda “men emas, biz” tamoyiliga asoslangan yondashuvni shakllantiradi. Bunday vaziyatda bola anglaydi: agar u topshiriqning o‘ziga tegishli qismini a’lo darajada bajargan bo‘lsa-da, guruhdoshi tomonidan topshiriq to‘liq ado etilmasa, yakuniy natija mukammal bo‘lmaydi. Bu esa uni passivroq bo‘lgan tengdoshlari faoliyatiga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Shu tariqa faol bolalar o‘z guruhidagi u qadar faol bo‘lmagan ishtirokchilarga yordam ko‘rsatish, ularni rag‘batlantirish, tushunmagan jihatlarini tushuntirishga harakat qilishadi. Bu jarayonning takrorlanib borishi orqali guruh ichida o‘zaro hamjihatlik, jamoaviy mas’uliyat, o‘zgalarning muvaffaqiyati uchun javobgarlik his-tuyg‘ulari shakllana boshlaydi. Faol bolalar guruh muvaffaqiyatini shaxsiy yutuq sifatida qabul qilishga o‘rganadi. Tarbiyachining roli bu jarayonda muhim hisoblanadi. U faoliyat davomida kamroq faollik ko‘rsatayotgan bolani chetga surmasligi, uni ayblamasligi kerak, balki guruh ichida yuzaga kelgan muammolarni hamjihatlikda hal etish, kelishuvga erishish, murosa madaniyatini shakllantirish kabi ijtimoiy o‘zaro ta’sir vositalarini o‘rgatishi zarur. Tarbiyachi bu borada zarur pedagogik yo‘naltirishlar berishi, bolalarni o‘z fikrini mustaqil ifoda etish, tahlil qilish, boshqalarning fikrlarni inobatga olishga o‘rgatishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari har bir ta’lim bosqichida o‘quvchilarning kelajakda muvaffaqiyatli va yetuk shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladigan samarali ta’lim texnologiyasidir. Ushbu yondashuv barcha davlat ta’lim tizimlarida insonparvarlik pedagogikasining tamoyillariga tayanadi. Ta’lim jarayoni insonparvarlik g‘oyalari asosida tashkil etilgandagina uning natijalari foydali bo‘ladi. Bolalarda do‘stona munosabatlarni shakllantirish esa ushbu insonparvarlik pedagogikasining poydevorini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. *Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U.* Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2009. – 240 b.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun. – Toshkent, 2022. – 102 b.

3. *Rasulova Z.D*. Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etish // *Scientific progress.* Vol.2. Issue 6. [Elektron manba]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ hamkorlik-texnologiyasiga-asoslangan-ta-lim-jarayonini-tashkil-etish/viewer(Murojaat etilgan sana: 19.08.2024)

4. *Nazirova G.M., Mullajonova* N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda hamkorlik texnologiyalari. [Elektron manba]. URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0075/75_i_ 20250429_123529_2.30.pdf (Murojaat etilgan sana: 4.09.2024)

5. *Slavin R.E.* (2016) Instruction Based on Cooperative Learning. [Online]. URL: https://edunum.unige.ch/sites/default/files/2020-05/Slavin_2016_Instruction%20Based%20on%20Cooperative%20 Learning.pdf (Date of access: 6.09.2024)

6. *Johnson D.W., Johnson R.T., & Smith K.A.* Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory //Journal on Excellence in College Teaching. – 2014. 25(3&4). – Pp. 85-118. [Online]. URL: https://static.pseupdate.mior.ca.s3.amazonaws.com (Date of access: 6.09.2024)

7. *Gillies R.M.* Cooperative Learning: Review of Research and Practice. // Australian Journal of Teacher Education, – 2016. 41(3). – Pp. 39–54. [Online]. URL: ro.ecu.edu.au. (Date of access: 11.09.2024)

8. *Nishonova Z., Alimova G.* Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 152 b.

9. *Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur nashriyoti”, 2019. – 683 b.

10. *Kayumova N*. Maktabgacha pedagogika. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: TDPU., 2013. – 183 b.

USING COLLABORATIVE LEARNING TECHNOLOGIES TO BUILD FRIENDSHIPS IN A GROUP OF CHILDREN (BASED ON DEVELOPMENT CENTERS)

I.X. Kuranova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research. 2025. 2 (86). 51-58.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: development centers, friendly relations, collaborative learning technologies.

This article scientifically analyzes the role of development centers established in preschool educational institutions under the First Step program in children’s education. Development centers play a vital role in developing independent thinking, creativity, social communication, and collaboration skills in preschoolers. Children attend these centers, choosing a center based on the topic of the lesson. This promotes the development of their communication skills and helps create a friendly atmosphere within the group. The centers play a significant role in children’s daily lives and become an integral part of their educational experience. Activities such as exchanging ideas, waiting in line, making objects together, drawing, or coloring develop children’s social skills. Through these processes, they develop mutual respect, solidarity, and friendships. The use of collaborative learning technologies in the five development centers designated by the First Step state program (each kindergarten may optionally establish an additional center depending on its resources) enhances this process. Most children attend development centers individually and, of course, in small groups of two or three. They often act in an effort to complete a task faster, stand out as leaders in their group, or demonstrate their achievements to parents and peers. As a result of such repetition, children unable to demonstrate their abilities may fall behind. Preventing such negative situations is precisely why the “small group work” cooperative learning method is so effective. The methods inherent in this technology were initially widely used in schools, then in higher education institutions, and today they are also widely used in kindergartens. This method requires children to work in groups: they complement each other, help a lagging child, following the teacher’s instructions, and understand that the overall success of the group depends on more than just individual actions. Even slightly lagging children

strive to actively participate, demonstrating courage and enthusiasm for the overall success of the group. Through mutual assistance, love between children is strengthened, tolerance and mutual respect are formed. This technology also helps children gain a deeper understanding of the subject matter. This article presents a methodology for implementing this technology in development centers, practical and methodological recommendations for teachers, and suggestions for improving the effectiveness of the educational process.

References:

1.Omonov, H.T., Xo'jayev, N.X., Madyarova, S.A., Eshchonov E.U. (2009) *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat* [Pedagogical technologies and pedagogical skills]. Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA".

2. (2022)*"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi* ["First Step" state curriculum]. Tashkent.

3. Rasulova, Z.D. (2021) Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish [Organizing an educational process based on collaborative technology]. *Scientific progress.* Vol.2. Issue 6. [Online]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/hamkorlik-texnologiyasiga-asoslangan-ta-lim-jarayonini-tashkil-etish/viewer (Date of access: 19.08.2025)

4. Nazirova, G.M., Mullajonova, N. *Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda hamkorlik texnologiyalari* [Collaborative technologies in preparing preschool children for school education]. [Online]. URL: https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0075/75_i_20250429_123529_2.30.pdf (Date of access: 4.09.2025)

5. Slavin,R.E. (2016) Instruction Based on Cooperative Learning. [Online]. URL: https://edunum. unige.ch/ sites/default/files/2020-05/Slavin_2016_Instruction%20Based%20on%20Cooperative%20 Learning.pdf (Date of access: 6.09.2024)

6. Johnson, D.W., Johnson, R.T., & Smith. K.A. (2014) Cooperative learning: Improving university instruction by basing practice on validated theory. *Journal on Excellence in College Teaching*. 25(3&4). Pp. 85-118. [Online]. URL: static.pseupdate.mior.ca.s3.amazonaws.com (Date of Access: 6.09.2024)

7. Gillies, R.M. (2016) Cooperative Learning: Review of Research and Practice. *Australian Journal of Teacher Education*. 41(3). Pp. 39-54. [Online]. URL: https://ro.ecu.edu.au. (Date of Access: 11.09.2024)

8. Nishonova, Z., Alimova, G. (2006) *Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi* [Child Psychology and Teaching Methods]. Tashkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

9. Qodirova, F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. (2019) *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent: "Tafakkur nashriyoti".

10. Kayumova, N. (2013) *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent: TDPU.

Muallif haqida ma'lumot:

KURANOVA Ismigul Xolmurod qizi – Andijon davlat universiteti Umumiy pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: ismigulkuranova@gmail.com